

**GENDER TENGLIGI VA IJTIMOYIY BARQARORLIK:
YANGI O‘ZBEKISTONDA MA’NAVIY YANGILANISHNING
GENDER MEZONLARI**

Norimonova Gulmira Ulug‘bek qizi

*Andijon davlat pedagogika instituti milliy g‘oya,
ma’naviyat asoslari va huquq ta’lim yo‘nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida gender tengligining ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy yangilanish jarayonlariga ta’siri ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida o‘rganiladi. Bugungu kunda Gender tengligi faqat huquqiy yoki siyosiy masala emas, balki jamiyatning madaniy-ma’naviy holatini belgilovchi vosita sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida ayollar huquqlari va ularning ijtimoiy faolligi hamda davlat boshqaruvidagi ishtitoki kun sayin ortib borayotganini kuzatishimiz mumkin. Mazkur maqolada aynan ma’naviy yangilanish jarayonlarida gender tengligining o‘rni, ayol shaxsining o‘zini anglash bosqichlari va ijtimoiy qadriyatlarning gender mezonlari orqali yangilanishi haqida yoritiladi. Shu bilan birga, gender tengligi orqali ijtimoiy barqarorlikka erishish konsepsiyasi hamda uni falsafiy va amaliy jihatdan asoslash, gender adolati bilan ijtimoiy birdamlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ijtimoiy jihatdan o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Gender tengligi, ijtimoiy barqarorlik, ma’naviy yangilanish, gender mezonlari, Yangi O‘zbekiston, jamiyatning ma’naviy asoslari, fuqarolik jamiyati, inson huquqlari, gender adolati, ayollarning huquqiy maqomi.

Annotation: In this article, the impact of gender equality in the Development Strategy of Uzbekistan on the basis of social stability and spiritual renewal is based on the social stability and philosophical approach. Today, the gender equality is considered only as a legal or political issue, but as a tool that determines the cultural and spiritual state of society. In recent years, we can observe women's rights and their social activity and the growing development of public administration day. This article briefs the place of gender equality in the process of spiritual renewal, the renewal of the woman's self-awareness stages and gender criteria of social values through gender criteria. At the same time, the concept of achieving social stability through gender equality and the interdependence between social solution, gender justice shall be considered socially.

Keywords: Gender Equality, Social Stability, Spiritual Renewal, Gender Criteria, spiritual foundations of new Uzbekistan, civil society, human rights, gender justice, legal status of women.

Аннотация: В статье рассматривается влияние гендерного равенства на социальную стабильность и процессы духовного обновления в Новой стратегии развития Узбекистана на основе социально-философского подхода. Сегодня гендерное равенство рассматривается не только как юридический или политический вопрос, но и как средство определения культурного и духовного состояния общества. В рамках реформ, реализуемых в Республике Узбекистан за последние годы, мы можем наблюдать, как с каждым днем расширяются права женщин, повышается их социальная активность и участие в государственном управлении. В статье рассматривается роль гендерного равенства в процессах духовного обновления, этапы женского самосознания и обновления общественных ценностей через гендерные критерии. При этом концепция достижения социальной стабильности посредством гендерного равенства и ее философское и практическое обоснование, а также взаимосвязь гендерной справедливости и социальной солидарности изучаются с социальной точки зрения.

Ключевые слова: Гендерное равенство, социальная стабильность, духовное обновление, гендерные критерии, Новый Узбекистан, духовные основы общества, гражданское общество, права человека, гендерная справедливость, правовой статус женщин.

Kirish: XXI asrda inson huquqlari hamda gender tengligi va ijtimoiy adolat global miqyosda dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammolardan biri sifatida qolmoqda. Demokratik jamyat qurish yo‘lini tanlagan har qanday davlat uchun gender tengligiga erishish nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarining yorqin ifodasi, balki barqaror taraqqiyot va inson kapitalidan to‘laqonli foydalanishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu jumladan, Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy islohotlar masalasi yangicha mazmun bilan boyitib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan taraqqiyot strategiyasi, “Ayollarni qo‘llab-quvvatlash va gender tengligini ta’minlash” ga oid davlat durturlari hamda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari(SDGs) bilan uyg‘un holda olib borilayotgan islohotlar va gender tengligi masalasini mamlakatning strategik ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurgan. Bu jarayonda gender tengligi nafaqat huquqiy-me’yoriy doirada, balki ijtimoiy ong va qadriyatlar hamda ma’naviyat darajasida ham tub islohotlarni talab qilib kelmoqda. Mavjud sotsiologik tadqiqotlar va amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarni jamiyat hayotiga keng jalb qilish va ularning liderlik salohiyatini rivojlantirish hamda iqtisodiy mustaqilligini ta’minlash orqali ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkin bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, gender tengligi va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni falsafiy va ma’naviy asoslarda tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri deb o‘ylayman. Mazkur

maqolada gender tengligi Yangi O‘zbekiston davridagi ma’naviy yangilanish, qadriyatlar tizimidagi o‘zgarishlar va jamiyatning ijtimoiy barqarorlik tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir. Ayollar huquqlarining kengayishi va ularning ijtimoiy faolligi hamda ongli fuqarolik pozitsiyasi, zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida inson qadri va adolat mezonlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Bugungi globallashuv va modernizatsiya sharoitida insoniyat oldida turgan muhim vazifalaridan biri- ijtimoiy adolat va barqarorlik tamoyillarini hayotga izchillik bilan tatbiq qilishdir. Chunki, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, taraqqiyot va madaniy uyg‘unlik bevosita inson huquqlari, ayniqsa, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi huquqiy va ijtimoiy tenglikning ta’minlanishiga bo‘g‘liq hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot modelida inson qadri va huquqi asosiy ustuvorlik sifatida qaraladi. Bu borada olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar- xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish hamda ularning ijtimoiy faolligini oshirish, siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish orqali jamiyatda adolat va barqarorlikni qaror toptirishga xizmat qilib kelmoqda.

Metod: Tadqiqotning ilmiy-metodologik asosi zamonaviy falsafa, sotsiologiya va gendershunolik fanlari asosida shakllangan bo‘lib, gender tengligi va ijtimoiy barqarorlik tushunchalarini chuquq tahlil qilishga asos bo‘ladi. Tadqiqotning asosiy metodlari quyidagi uslubiy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi:

1. Falsafiy-sistemali yondashuv: Tadqiqot davomida gender tengligi hamda ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy yangilanish o‘zaro bog‘liq tizimli ijtimoiy hodisalar sifatida qaraladi. Ushbu metod orqali gender munosabatlarini jamiyatning qadriyatlar tizimi, mafkuraviy tamoyillari va tarixiy shakllangan ijtimoiy ong bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqishga imkon beradi.

2. Tarixiy-falsafiy tahlil: Gender tengligi tushunchasining O‘zbek jamiyati taraqqiyotidagi tarixiy shakllanishi, sovet davridagi gender siyosati, mustaqillikdan keyingi davrdagi islohotlar va Yangi O‘zbekiston bosqichidagi o‘zgarishlar tarixiy ketma-ketlik asosida o‘rganiladi.

3. Aksiologik yondashuv: Maqolada gender tengligi qadriyat sifatida tahlil qilinadi. Xususan, ayollarning o‘rni va maqomi, ijtimoiy tenglik, adolat, erkinlik singari qadriyatlar Yangi O‘zbekiston ma’naviy yangilanish konsepsiyasi bilan qanday uyg‘unlashyotgani o‘rganiladi. Aksiologik tahlil orqali gender tengligi jamiyat onigda qanday aks qilayotgani aniqlanadi.

4. Normativ-huquqiy tahlil: Gender tengligiga oid milliy qonunchilik bazasi- O‘zbekiston Resoublikasining Konstitutsiyasi, “Gender tengligi to‘g‘risida”gi Qonun, davlat strategiyalari va xalqaro huquqiy hujjatlar o‘rganilib, gender siyosatining huquqiy jihati tahlil etiladi.

5. Sotsiologik-empirik metodlar: Gender tengligi borasidagi ijtimoiy real holatni chuqur tahlil qilish uchun mavjud statistik ma'lumotlar, milliy va xalqaro reytinglar, ramiy hisobotlar va ommaviy axborot vositalari materiallari o'rganiladi.

Natijalar: Tadqiqot davomida gender tengligi hamda ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy yangilanish masalalarining o'zaro bog'liqligi, O'zbekistonning yangi gender siyosati va uning jamiyatdagi ijtimoiy ta'siri keng o'rganiladi. Ushbu tadqiqotning asosiy natijalari quyidagicha:

1. Gender tengligi va ijtimoiy barqarorlikning bir-biriga ta'siri. O'zbekistonning gender siyosati doirasidagi islohotlar, xotin-qizlarning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy faoliyatida teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlash orqali ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shmoqda.

2. Yangi O'zbekiston gender siyosatining ijtimoiy va ma'naviy yangilanishiga ta'siri. Tadqiqotda O'zbekistondagi ma'naviy yangilanish jarayonida gender tengligi masalasining asosiy o'rin tutishi aniqlanadi. Yangi O'zbekiston davrida amalga oshirilgan gender siyosati doirasidagi huquqiy islohotlar, o'zgarishlar va yangi me'yorlar jamiyatda qadriyatlar tizimini yangilashga ximat qiladi, albatta.

3. Xotin-qizlarning siyosiy ishtiroki va jamiyatdagi o'rni. Tadqiqotda olingan natijalarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida ayollarning siyosiy ishtiroki va jamiyatdagi maqomini oshirishga qaratilgan islohotlar ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. O'zbekiston respublikasida xotin-qizlar uchun mo'ljallangan maxsus siyosiy va huquqiy dasturlarni ishlab chiqarish va jamiyatda ularning siyosiy o'rni va mavqei oshirishga xizmat qilib kelmoqda. Shu bilan birga, ayollarning partiyalarda, davlat idoralarida va parlamentdagi ishtiroki ortib bormoqda.

4. Iqtisodiy barqarorlik va gender tengligi. Ayollarning iqtisodiy faoliyatda ishtiroki, ishchi kuchiga jalb qilinishi va iqtisodiy mustqallikka erishishlari jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. O'zbekistonning gender siyosatining bir qismi sifatida ayollarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularning ish bilan ta'minlash imkoniyatlarni kengaytirish, o'z biznesini tashkil qilishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

5. Gender tengligi va milliy qadriyatlar uyg'unligi. O'zbekistonning gender siyosati milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat bilan olib borilayotgani sir emas. Tadqiqotda O'zbekistonning milliy va diniy qadriyatlaridan kelib chiqib, gender tengligi haqidagi qarashlarning ijtimoiy ongda qanday o'zgariyotganligi o'rganib chiqiladi. Milliy va diniy an'analarga asoslanga holda gender tengligini ilgari surish, ijtimoiy rivojlanishning bir qismi sifatida muvaffaqiyatli amalga oshirilib kelinmoqda.

Tahlil: Gender tengligi jamiyatdagi mavjud ijtimoiy strukturalar bilan bevosita bog'liq. O'zbekiston sharoitida gender tengligiga oid yondashuvlar oxirgi yillarda yangi bir bosqichga ko'tarildi. Misol uchun ayollarning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy faolligi sezilarli darajada oshdi:

- Oliy ta’lim muassalariga qabul qilinayotgan talabalar ichida qizlar ulushi 2016-yildagi 38 foizdan 2023-yilga 50 foizga yetdi;

- Ayollar o’rtasida kichik biznes yuritayotganlar soni ikki baravarga oshgan;

- Siyosiy partiyalarda ayollar faolligi kuchaymoqda.

Yangi O‘zbekistonning ma’naviy yangilanish konsepsiyasida gender tengligi va qadriyatlar o’rtasida qarama-qarshilik emas, balki uzviylik va uyg‘unlik mavjudligi ta’kidlanmoqda. Masalan:

- Islomiy qadriyatlarda ayolga hurmat, onalik maqomi va uydagi baraka timsoli sifatidagi yuksak maqom berilgan;

- Shu bilan birga, zamonaviy jamiyat ayolgan ijtimoiy faoliyatda, ta’limda, siyosatda ham teng ishtirokini talab qiladi.

Ayollar-nafaqat jamiyatning a’zosi, balki faol ijtimoiy kapital egasi hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekiston ayollari ta’lim, tibbiyot, madaniyat, IT, siyosat va boshqa sohalarda jadal sur’atda rivojlanib kelmoqda. Gender tengligini amalda ta’minlash uchun jamiyat ongining yangilanishi, genderga oid an’anaviy stereotiplarning yangicha talqini talab qilinadi. O‘zbekistonlik sotsiologlar masalan, S.Sagdullayeva va D.Komilovalar o‘z tadqiqotlarida ayollarning jamiyatdagi o‘rni tobora ko‘proq qadrlanayotganini qayd qilishadi.

Gender tengligining BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasidagi o‘rni O‘zbekistonning xalqaro siyosiy holatiga ham ta’sit o‘tkazmoqda. Xotin-qizlarni himoya qilish va ularni iqtisodiy mustaqillikka olib chiqish, zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ichki ijtimoiy barqarorlik, balki xalqro hamjamiyat bilan ishonchli hamkorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb qilmoqda.

Xulosa: Gender tengligi va ijtimoiy barqarorlik Yangi O‘zbekistonning ma’naviy yangilanish siyosatining asosi sifatida qaralishi, mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasida muhim ahamiyatga ega. Kelajakda ushbu yo‘nalishdagi islohotlarning izchil davom ettirilishi orqali barkamol jamiyat sari qadam tashlanmoqda. Xulosa qilib aytganda, gender tengligi va ijtimoiy barqarorlik o‘zaro bog‘liq jarayonlar bo‘lib, ular ma’naviy yangilanishning tamoyillari bilan uyg‘un holda kechishi Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti uchun zaruriy shartlaridan biri deb o‘ylayman. Ushbu mezonlar asosida olib borilayotgan tizimli islohotlar uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlik va inson kapitalining yuksalishiga xizmat qiladi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qurbonova S.M.Gender tengligi:nazariy asoslari va amaliy yondashuvlar.- Toshkent:Iqisodiyot,2021.-208b;
2. Tadjibayeva D.A. Gender siyosati va uning ijtimoiy jarayonlarga ta’siri.2022;
3. Azizxo‘jayeva N.N.Pedagogika.-Toshkent.2006;

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Far,omi;
5. Abdullayeva G.G. Gender tengligi:ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslar.- Toshkent:2021;
6. <https://worldljournals.com>;
7. <https://strategy.uz>.